

ISSN (E) - 2181-1334

№8


30.12.2020

# UZACADEMIA

ILMIY-USLUBIY JURNAL

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ


SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL



ICI WORLD of JOURNALS



OPEN ACCESS




FARG'ONA VILOYATI, FARG'ONA SHAHRI  
ISTE'DOD KO'CHASI 1-UY, 1-XONADON

+99891-152-93-14

WWW.ACADEMIASCIENCE.ORG





**“ACADEMIA SCIENCE” ILMY-TADQIQOTLAR MARKAZI**


# **UZACADEMIA**

**ILMIY-USLUBIY JURNALI  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL**

**ISSN (E) – 2181 - 1334**

**BARCHA SOHALAR BO‘YICHA**

**VOL 1, ISSUE 8, DECEMBER 2020  
PART - 1**



**ICI WORLD of JOURNALS**



**[www.academiascience.org](http://www.academiascience.org)**



**Volume 1. Issue 8, December 2020**



## TAHRIRIYAT

### Editor in chief

Eshmatov Gayratjon Marupovich

### Executive Secretary

Ravshanjon Abdullayev

*He is a history teacher at Baghdad District*

*8 Secondary School*

### Preparing for publishing

Khalikov Mukhriddin Tavakkaljon ugli

*Fergana State University*

### Bosh muharrir

Eshmatov G'ayratjon Ma'rupovich

### Mas'ul kotib

Ravshanjon Abdullayev

*Bag'dod tumani 8-umumiy o'rta ta'lim*

*maktabi tarix fani o'qituvchisi*

### Nashrga tayyorlovchi

Holiqov Muhridin Tavakkaljon o'g'li

*Farg'ona davlat universiteti*

## TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

### Sultonali Mannopov

*O'zbekiston xalq artisti, professor*

### Eshmetov Izzat Do'simbatovich

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi,*

*texnika fanlari doktori, professor*

### Matibaev Taspolat Baltabaevich

*Sotsiologiya fanlari doktori (DSc), Professor, Turon FA Akademik*

### Abdullayev Muzrobjon Gulamovich

*Andijon davlat universiteti, professor*

### Akramova Shahnoza Abrorovna

*Milliy gvardiya Xarbiy-texnika instituti Psixologiya va pedagogika kafedrasini*

*mudiri, Pedagogika fanlari doktori, dotsent*

### Arslanov Sharafutdin Sultanovich

*kimyo fanlari doktori, professor*

### Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

### Oripov O'rolboy Ahmedovich

*Navoiy davlat pedagogika instituti, PhD*

### Fazliyeva Zebo Kamarbekovna

*O'zbekiston davlat Xoreografiya Akademiyasi, dotsent*

### Azimov Baxtiyor Ganievich

*O'zbekiston davlat konservatoriyasi, Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

### Xusanova Xayriniso Tayirovna

*O'zMU, sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent*

### Smaylova Gulmari Yuldashevna

*QRXTHQTMO hududiy markazi, dotsent*

### Bazarov Otabek Odilovich

*Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD*

### Popov Dmitriy Vladimirovich

*Andijon mashinasozlik instituti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

### Raximova Gulchexra Sobirjonovna

*Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD*

### Umarova Maxliyo Yunusovna

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, f.f.n, dotsent*

### Ismoilova Muhayyo Qozoqboyevna

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, filologiya fanlari nomzodi*

### Toshtemirov Otabek Abidovich

*Farg'ona politexnika instituti*



MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	I.E.Mirzoyeva, M.N.Hamroyeva O'RTA OSIYO TOG'LARIDAGI QADIMGI MUZLIKLARINING O'RGANILISHI VA UNING GEOGRAFIK JIHATLARI	8
2.	Юлдашева Манзура Бориходжаевна ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ СТРАТЕГИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СФЕРЕ КУЛЬТУРЫ	14
3.	Расулова Гулбахор Абиджановна ОИЛА – ЖАМИЯТ КЎЗГУСИ	20
4.	Узакбаева Гулзира Жолдасбаевна КИТОБДАН ЯХШИРОҚ ДЎСТ ЙЎҚ ЖАҲОНДА	28
5.	Каримов Зафар Атабоевич ХИТОЙ “ЖАНГОВАРЛИК САНЪАТИ” БЎЛГАН УШУНИНГ САЛОМАТЛИК ВА УЗОҚ УМР КЎРИШДА ТУТГАН ЎРНИ (ФАЛСАФИЙ ЖИХАТЛАРИ)	33
6.	Солиева Гулшаной Гуломовна ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ	38
7.	Пўлатов Сайёдбек Ҳасанович АБУ ҲОМИД АЛ-ҒАЗЗОЛИЙ ТАСАВВУФИЙ ТАЪЛИМОТИНИНГ ТЕОЛОГИК, ИЖТИМОЙ - ФАЛСАФИЙ МОҲИЯТИ	43
8.	Бобаева А.С. Рафиев Б.Х. БОЯЛИЧ-(SALSOLA ARBUSCULA)УРУҒЛАРИНИНГ ҚАРНАБЧЎЛ ШАРОИТИДАГИ МАҲСУЛДОРЛИК КЎРСАТКИЧЛАРИ	50
9.	Togayeva Guzal Irkinovna THE USE OF MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES AND THEIR IMPORTANCE	54
10.	Xolova Zarnigor G'affor qizi THE ROLE OF MENTOR IN MODERN EDUCATION SYSTEM	57
11.	O'ralova Gulzoda FIZIKA FANIDA MURAKKAB MASALALAR YECHISH METODIKASI	60
12.	Atajanov Sardorbek Ajdar o'g'li, Ibadullayev Bazar Mambetovich SHIRINMIYA ILDIZIDAN EKSTRAKT OLISHNING EKSPRESS METODI	65
13.	Otajonova Go'zal BUXORO AMIRLARINING MADANIY-MA'RIFIY HAYOTDAGI O'RNI	70
14.	Раҳматуллаева Дилфуза Назруллаевна ЯНГИ ЎЗБЕК ТЕАТРИНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА ФОЛЬКЛОР АНЪАНАЛАРИНИНГ ЎРНИ	73
15.	Z.Tajekbaeva PIRLS-MATNNI O'QISH VA TUSHUNISH DARAJASINI BAHOLASH	79
16.	Saparboyeva Madina Murodjon qizi OGANIY QIT'ALARI BADIYYATI	82
17.	Саидова Гулрух Рузибоевна ХИВА – КАК ОДИН ИЗ ЦЕНТРОВ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ	86
18.	Jalolova Gulnoz Mannob qizi DANTE ALIGERINING “ILOHIY KOMEDIYA ASARI” TASVIRIY SAN'AT ASARLARIDA O'RGANILGANLIGI	91
19.	Hudoyberdieva Olimaxon Ergashevna	95



## O'RTA OSIYO TOG'LARIDAGI QADIMGI MUZLIKLARINING O'RGANILISHI VA UNING GEOGRAFIK JIHLTLARI

*I.E.Mirzoyeva*

*BuxDu, Ekologiya va geografiya kafedrası katta o'qituvchisi*

*M.H.Hamroyeva*

*Kogon tuman 16-umumta'lim maktabi geografiya fani o'qituvchisi*

**Аннотация:** Мақолада Ўрта Осиё табиий географик ўлкасида ҳосил бўлган қадимги замон музликларининг ўрганилиши ва уларнинг географик, экологик жиҳатлари ёритилган.

**Калим сўзлар:** Музлик, атмосфера, қоплама музлик, палеоген, мезазой, бурмаланиш, рельеф, оқим, трог, тўртламчи давр, тоғ.

## ANCIENT GLASSES IN THE MOUNTAINS OF CENTRAL ASIA STUDY AND ITS GEOGRAPHICAL ASPECTS

*I.E.Mirzoyeva*

*Senior Lecturer, Department of Ecology and Geography, Bukhara State University*

*M.H.Hamroyeva*

*She is a geography teacher at Kagan District Secondary School No. 16*

**Annotation:** The article describes the study of ancient glaciers formed in the natural geographical region of Central Asia and their geographical, ecological aspects.

**Keywords:** Glacier, atmosphere, cover glacier, paleogene, mesozoic, deformation, relief, current, trog, quaternary, mountain.

## ДРЕВНИЕ ЛЕДНИКИ В ГОРАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ ИЗУЧЕНИЕ И ЕГО ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

*И. Е. Мирзоева*

*Старший преподаватель кафедры экологии и географии Бухарского государственного университета*

*М. Х. Хамроева*

*Учитель географии в Казанской районной средней школе №16*





**Аннотация:** *Статья посвящена изучению древних ледников, образовавшихся в природно-географическом регионе Центральной Азии, и их географических, экологических аспектах.*

**Ключевые слова:** *ледник, атмосфера, покровный ледник, палеоген, мезозой, деформация, рельеф, течение, трог, четвертичный период, гора.*

Ma'lumki, keyingi yillarda iqlimning o'zgarishi, to'g'rirog'i havo haroratining ko'tarilayotganligi haqida juda ko'p marotaba takidlanmoqda. Bu jarayon o'z navbatida daryo suvlarining asosiy manbai hisoblangan muzliklar maydoni va miqdorining o'zgarishiga sabab bo'ladi. So'ngi tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'lishicha O'rta Osiyodagi daryolarning ba'zilarini suvi global isish sharoitida kamayayotgan bo'lsa boshqalarniki ko'paymoqda. Asosan muzlik suvidan to'yinuvchi daryolar suvi ko'payib borayotgani muzlarni juda katta tezlikda erib maydonini va hajmini qisqarib borayotganidan xabar beradi. Iqlim isishining shu tarzda davom etishi yaqin kelajakda tog' muzliklarini kamayib yoki butunlay yo'qolib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu ma'noda O'rta Osiyodagi muzliklarni ilmiy va nazariy jihatdan o'rganish muhim ahamiyatga ega dolzarb masala hisoblanadi.

O'rta Osiyo tog'larida qadimgi muzliklarning paydo bo'lish sabablari haqida olimlar o'rtasida turli fikrlar bor. Bir guruh olimlar qadimgi muzliklar tog' paydo bo'lish jarayonida tog'larning ko'tarilishi natijasida hosil bo'lgan degan fikrni olg'a surishadi, ikkinchi guruh olimlar qadimgi muzliklarning hosil bo'lishida asosiy omil butun yer shari iqlimining o'zgarishidadir, degan fikrdadir. To'rtlamchi davr mobaynida O'rta Osiyo tog'larida nechta muzlik davri bo'lganligi ancha chigal masalalardan biri hisoblanadi. Bu muammo juda ko'p yillardan beri qadimgi muzliklar masalasi bilan shug'ullanuvchi olimlarni qiziqtirib kelmoqda. Bu masala yuzasidan olimlar o'rtasida turli fikr va mulohazalar bor.

Qadimgi muzlik davrining soni, masalasi bo'yicha hozirgi davrda geolog va geograf olimlar o'rtasida ikkita oqim hukm surib kelmoqda. Birinchi oqim buyicha O'rta Osiyo tog'larida to'rtlamchi davr mobaynida faqat bir muzlik davri bo'lgan. Ikkinchi oqim bu davrda bir qancha muzlik davrlari bo'lgan deydi.

Bu masala bilan hatto o'tgan asrda O'rta Osiyoning tabiatini tekshirish bilan mashg'ul bo'lgan olim va sayyohatchi N.A. Severtsov edi. U birinchi bo'lib O'rta Osiyo tog'larida qadimgi muzliklarning paydo bo'lish sabablari haqida o'z fikrini aytgan. Uning fikricha, qadimgi davrlarda iqlim hozirgiga nisbatan ancha namli bo'lgan, shuning uchun qish faslidagi harorat hozirgiga nisbatan past bo'lsa ham tog'larda juda ko'p qor yog'gan. O'sha davrda namgarchilikni asosan O'rta Osiyo tog'lari, uning shimoli va shimoli-g'arbida joylashgan Kaspiy, Orol, Balxash ko'llari va Shimoliy Muz okeanining birlashishidan hosil bo'lgan katta suv havzasidan olib



turgan degan fikrni aytgan. Keyingi olib borilgan tekshirishlar olimning bu fikri noto'g'ri ekanligini ko'rsatdi.

Taniqli geolog olim I. A. Preobrajenskiy O'rta Osiyo tog'larining balandligi, ya'ni ko'tarilganligiga qadimgi muzliklarning paydo bo'lishini asosiy sabab qilib ko'rsatadi. Keyingi muzliklarning chekinishi va maydonining ortishini esa keyingi sharoitining o'zgarishi bilan bog'laydi. V.V.Reznitsenko, A.Ya.Petrosyants, S.V.Kalesnik qadimgi muzliklarning hosil bo'lishini faqat tog'larnng dengiz sathidan ma'lum balandlikka ko'tarilishi bilan bog'laydi.Ularning fikricha, tog'lar faqatgina muzliklar paydo bo'lishidan oldin ko'tarilibgina qolmay, balki har qaysi muzlik davrining boshlanishidan oldin ham ko'tarilgan. Tog' ko'tarilishi u joyning iqlim sharoitiga ta'sir etgan. A.Ya.Petrosyantsning ko'rsatishicha, tog'larning ko'tarilishi u joyning haroratini pasaytirgan. Uning fikricha, muzliklariing hosil bo'lishi uchun tog'larning ko'tarilishi va haroratning pasayishi yetmaydi. Buning uchun yana ma'lum miqdorda namlikning bo'lishi ham shartdir.

S.V.Kalesnik muzliklar maydonining vaqti-vaqti bilan kamayishi keyingi iqlim sharoitining o'zgarishi bilan bog'liq deydi. O'rta Osiyo tog'larini ko'p yillar mobaynida tekshirgan olim professor Yu.A.Skvortsov qadimgi muzliklariing paydo bo'lishi haqida quyidagilarni yozgan. To'rtlamchi davr mobaynida O'rta Osiyo tog'larining dengiz sathidan kuchli ko'tarilishi bu rayonning iqlim sharoitini o'zgarishga olib kelgan. Buning ta'sirida O'rta Osiyo tog'larining ayrim rayonlarida Yer sharining iqlimi o'zgarishga bog'liq bo'lmagan holda muzliklariing kelib chiqishi uchun sharoit yaratilgan.

Shunday ekan namgarchilik qayerdan keladi degan savolga prof. Yu. A. Skvortsov shunday javob beradi. Kaspiy va Orol dengizlari birlashib katta suv zaxirasini hosil qilgan. Shu davrda shimoldan O'rta Osiyo tog'lariga esayotgan shamol nanga to'yingan va O'rta Osiyo tog'lariga yetib muzliklariing paydo bo'lishiga va oziqlanib turishiga sabab bo'lgan. Bundan tashqari A.Skvortsovning fikricha O'rta Osiyo tog'larida muzliklariing paydo bo'lishi uchun tog'larning ko'tarilishi va namgarchilikdan tashqari haroratning pasayishi ham zarur.

Akademik I.P.Gerasimov va professor K.K.Markovlar tog'larning qadimgi muzliklar bo'yicha juda ko'p materiallarni tahlil qilib, qadimgi muzliklarning paydo bo'lishi haqida quyidagi xulosaga kelishdi. Tog'larda muzlik iqlim o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan. Tog'lar iqlimi butun Yer shari iqlimining o'zgarishidan, tog'larning balandligidan va rel'ef xarakteriga bog'liq holda o'zgarib turgan. Ularning fikricha, qadimgi muzlik haroratning pasayishi va namgarchilnkning oshishi natijasida hosil bo'lgan. Muzliklar paydo bo'lgan davrda tog'larda yog'ingarchilikning miqdori oshgan. Biroq ba'zi olimlar (R.D. Zabirov) qadimgi muzliklarning hosil bo'lishi uchun Yer sharining iqlimi, sharoitining o'zgarishi shart emas, deydi. Uning yozishicha, tog'larnng ko'tarilishi natijasida o'sha joy



iqlimining o'zgarishi muzliklar paydo bo'lishi uchun yetarlidir. Muzlik paydo bo'lishi uchun iqlimning keskin o'zgarishi shart emas.

I.P.Gerasimov va K.K. Markovlarning fikricha, paleogen davridagi muzliklarning paydo bo'lishida asosiy rolni tog'larning ko'tarilishi o'ynagan. Keyingi davrlarda muzliklarning evolyutsiyasida umumiy yer sharining iqlim o'zgarishi asosiy omil bo'lgan.

Professor B.L.Lichkov tog'li rayonlarda bo'lib o'tgan bir necha muzlik davrlari hamma vaqt tog'larning ko'tarilishi natijasida sodir bo'lgan degan fikrni olg'a surgan. L.S.Berg muzliklarning hosil bo'lishida tog'larning ko'tarilish rolini butunlay inkor qiladi. Uning yozishicha Yer tarixida juda ko'p tog' ko'tarilish jarayonlari bo'lgan, biroq hamma vaqt ham muzliklar hosil bo'lmagan. Undan tashqari tog' ko'tarilish jarayonlari qadimgi muzlik davrlarining sonlariga to'g'ri kelmaydi.

Shu fikrga asoslanib, L.S.Berg qadimgi muzliklar hosil bo'lishining asosiy sababchisi qilib bulut yer atmosferasi haroratining pasayishi deb ko'rsatadi. Bundan tashqari L.S.Berg ko'pchilik olimlar singari muz massivlari hosil bo'lishi uchun ma'lum miqdorda yog'ingarchilik bo'lishi shart deydi. U qadimgi muzliklar yer sharining hamma qismida bir vaqtda iqlim o'zgarishi natijasida paydo bo'lgan degan fikrni olg'a suradi. L.S.Bergning bu fikri bilan kelishish mumkin emas, albatta. Qadimgi muzliklar hosil bo'lishida tog'larning ko'tarilishini inobatga olmaslik hech ham mumkin emas. Xususan O'rta Osiyo tog'lari paleogen davridan boshlab ko'tarila boshlamaganda edi, bu rayonda hech qanday muzliklarning paydo bo'lishi mumkin bo'lmagan bo'lur edi.

O'rta Osiyo hududida ko'p yillar davomida tekshirish ishlari olib borgan olim professor B. A. Fedorovich qadimgi muzliklar kelib chiqishining asosiy sababi qilib paleogen davrining oxirlarida boshlangan kuchli tog' paydo bo'lish jarayonlarini ko'rsatadi. U yozadiki, paleogen davrining oxiri va to'rtlamchi davrning boshlarida Tyan'shan tog'lari shunchalik ko'tarildiki, ularda muzliklar hosil bo'ldi.

B.A. Fedorovich fikriga to'liq qo'shilsa bo'ladi. Chunki haqiqatan ham O'rta Osiyo tog'laridagi paleogen va to'rtlamchi davrning boshlarida kuchli ko'tarilishlar muzliklarning hosil bo'lishida asosiy rolni o'taydi. Shu ko'tarilishlar bu rayonlarda muzliklarning paydo bo'lishi uchun imkoniyat yaratdi.

Ayrim olimlar qadimgi muzliklariing paydo bo'lishida bir nechta omillar qatnashgan bo'lishi mumkin deyishadi. Masalan, professor A.A.Kruber qadimgi muzliklariing paydo bo'lishi sabablaridan biri qilib, kosmik omillar ya'ni quyosh radiatsiyasining o'zgarishi va yerning quyoshga nisbatan o'rnini o'zgartirishini ko'rsatadi.

Qadimgi muzliklar okeanlardagi issiq va sovuq oqimlar yo'nalishining o'zgarishi natijasida ham hosil bo'lishi mumkin. Olimlarning yozishicha, bu ta'sir



faqat to'rtlamchi davrda emas, balki yer tarixining qadimgi davrlarida ham bo'lgan. Yer sharining ba'zi hududlarning iqlimi biron tog' sistemasining ko'tarilishi natijasida ham o'zgarib ketishi mumkin. Masalan, Yer tarixining bir davrlarida O'rta Osiyo va uning janubidagi Qoraqurum va Himolay tog'lari bo'lmagan. Bunday davrlarda O'rta Osiyo hududida subtropik nam iqlim bo'lgan. Bu jaryonga Hind okeanidan issiq oqimlar kelib turgan. Bu tog'lar ko'tarilishi bilan ular bu issiq oqimlarning yo'lini to'sib, o'tkazmay qo'ygan va natijada iqlim keskin o'zgargan.

Olimlarning yuqorida keltirilgan turli fikrlaridan ko'rinib turibdiki, O'rta Osiyo tog'lari qadimgi muzliklarining kelib chiqish sabablari hozirga qadar to'liq hal qilinmagan. Bu haqida katta tortishuvlar bo'lib turibdi. Shunday qilib olimlar fikrini quyidagi to'rtta guruhga bo'lish mumkin:

Birinchi, O'rta Osiyo tog'larida qadimgi muzlik tog'lar ko'tarilishi natijasida paydo bo'lgan; Ikkinchi, O'rta Osiyo tog'larining ko'tarilishi u rayonlarning iqlim sharoiti o'zgarishga olib kelgan va natijada qadimgi muzliklar hosil bo'lgan; Uchinchi, O'rta Osiyo tog'larida qadimgi muzliklar butun yer sharining iqlimning o'zgarishi natijasida paydo bo'lgan; To'rtinchi, qadimgi muzliklar kosmik va tellur jarayonlar (masalan, Quyosh radiatsiyasining o'zgarishi, yer sharining quyoshga nisbatan o'rnini o'zgartirishi va yer atmosferasining tarkibi o'zgarishi) natijasida paydo bo'lgan.

O'rta Osiyo tog'larida qadimgi muzliklariing paydo bo'lishi juda murakkab jarayondir. Qadimgi muzliklarning hosil bo'lishida tog'lar ko'tarilishi va iqlim sharoiti o'zgarishi ham asosiy rolni o'tagan. Bularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Shubhasiz, tog'larning ko'tarilishi qadimgi muzliklariing hosil bo'lishida asosiy omillardan biri bo'lgan. Agar O'rta Osiyo tog'lari paleogen davridan boshlab ko'tarila boshlamaganda edi, u yerda hech qanday muzliklar hosil bo'lmay, bu rayonlarda ham hozirgi bizga ma'lum cho'l va dasht sharoiti mavjud bo'lgan bo'lur edi. Shu davrdan boshlab O'rta Osiyo tog'larining ko'tarilishi faqatgina havo haroratini pasaytiribgina qolmay, shu bilan birga u rayonlarda yog'ingarchilik ko'p yog'ishiga sabab bo'ldi. Shunday qilib muzliklarning hosil bo'lishi uchun sharoit yaratildi. Ehtimol bunga butun yer sharining iqlim o'zgarishi ham ta'sir ko'rsatgandir. O'rta Osiyo tog'larida paleogen va to'rtlamchi davrning boshlarida hosil bo'lgan muzliklar shu yo'l bilan paydo bo'lgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib quydagicha xulosa qilish mumkin. O'rta Osiyo hududida qadimda juda katta muzliklar shakillangan bo'lib ularning maydoni hozirgi kunda keskin qisqarib ketgan va bu jarayon hozir ham davom etmoqda. Bu esa o'z navbatida tabiatning bebaho nemati hisblangan suvdan tejab-tergab foydalanishni taqazo etadi.

**Foydalannilgan adabiyotlar ro'yxati:**



1. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish. «O'qituvchi» nashri. T. 1991.
2. Табий комплексларнинг барқарорлигига инсон хўжалик фаолиятининг таъсири. Тўплам «Ўзбекистонда география фанининг долзарб муаммолари». Термиз–2016. Республика илмий -амалий конференцияси материаллари. 35-37 б.
3. Гвоздецкий Н.А. Среднеазиатская горная страна. В.кн. Физико-географическое районирование 1968.